
FORUM ISHTIROKCHILARI - RISHTONDA!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan muloqotida berilgan topshiriqlarni bajarish maqsadida 10-11 dekabr kunlari Farg'onada "O'zbek-qirg'iz chegaraoldi hududlari biznes forumi" o'tkaziladi.

Bugun ushbu forum ishtirochilari Rishton tumanida bo'lishdi. Mehmonlar viloyat va tuman hokimi o'rinbosarlari hamkorligida dastlab "Mingboshi keramik" kulolchilik va hunarmandchilik kooperatsiyasi ishlab chiqarish faoliyati hamda ichki va tashqi bozorda xaridorgir bo'layotgan kulolchilik mahsulotlari ko'rgazmasi bilan tanishdilar.

Forum ishtirokchilarining navbatdagi manzili - tadbirkor Muhayyo Sattorova tomonidan tashkil etilgan "MM Porcelain" MChJ shaklida oilaviy korxonasi bo'ldi. Muhayyo Sattorova tomonidan tashkil etilgan chinni mahsulotlariga bezak berish sexidagi ishlar jarayoni ko'zdan kechirildi.

2024-12-10 14:38:23